

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02.
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

TADJIBAYEVA SHAXISTA MAMATQULOVNA

**YAKKAKURASH SPORT TURLARI BILAN SHUG‘ULLANUVCHI
O‘SPIRINLARDA AGRESSIYANI OPTIMALLASHTIRISHNING
PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI
(boks va dzyudo yakkakurash turlari misolida)**

19.00.06. – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2024

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Dostor of Philosophy (PhD)
on Psychological Scienses**

Tadjibayeva Shaxista Mamatqulovna

Yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlarda agressiyani optimallashtirishning psixologik imkoniyatlari (boks va dzyudo yakkakurash turlari misolida).....3

Таджибаева Шахиста Маматқуловна

Психологические возможности оптимизации агрессии у юношей, занимающихся единоборством (на примере такими видами единоборства как бокс и дзюдо).....23

Tadjibayeva Shakhista Mamatqulovna

Psychological possibilities of optimizing aggression in teenagers engaged in martial sports (boxing and judo as examples of martial sports).....45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....50

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02.
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

TADJIBAYEVA SHAXISTA MAMATQULOVNA

**YAKKAKURASH SPORT TURLARI BILAN SHUG‘ULLANUVCHI
O‘SPIRINLARDA AGRESSIYANI OPTIMALLASHTIRISHNING
PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI
(boks va dzyudo yakkakurash turlari misolida)**

19.00.06. – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2022.1.PHD/P352.raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.tdpu.uz va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimova Vasila Mamanosirovna
psixologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdurasulov Rustam Abduraimovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Mamadaliyev Abror Akbarjonovich
Psixologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02.raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “___” _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil “___” _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori (DSc), professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

Z.T.Nishonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, psixologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda bugungi kunga kelib, yakkakurashchilarning muayyan jangovar mahorati bilan birga sport faoliyatidan tashqari shaxslararo munosabatlarida agressivlikka hos bo'lgan holatlarining uchrab turishi kuzatiladi. Ilmiy manbalarda boks sporti kabi agressiyani namoyon qiluvchi sport turi bilan shug'ullanish va uni sportchi shaxsiyatiga bog'liqlik tomonlari borligi tobora ko'proq e'tiborga olinmoqda. Bir tomondan, sport adrenalin chiqarish va agressiyani bostirishning bir usuli sifatida qaralsa, boshqa bir tomondan, sportdagi vaziyatlar, musobaqalar va mashg'ulotlarda ko'proq agressivlikni talab qilishi bilan ajralib turadi. Sportchining asosiy psixologik qobiliyatlaridan biri esa agressiv holatlarini nazorat qila olishidir. Sportga o'zida vujudga keladigan jismoniy va aqliy imkoniyatlarni, maqsadga yonaltirilgan tayyorgarlikni mashg'ulotlar yordamida doimiy ravishda oshirib borish orqali musobaqada ishtirokini ta'minlashga qaratilgan mujassamlashgan jarayon sifatida ham qaraladi¹. Shunga bog'lik holda yakkakurash sport turlaridan psixologik tomondan ilmiy tadqiq etishimizda dolzarb hisoblangan boks hamda dzyudo sportida agressiv holatlar kuzatilayotganligi sababli keng ilmiy jamoatchilik diqqat markazida bo'lgan asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Dunyoda yakkakurash sport turlari rivojlangan mamlakatlarda boks hamda dzyudo sporti sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda, ularning hissiy-emotsional holatlari, individual-psixologik xususiyatlari, irodaviy motivatsion sohasini o'rganish yuzasidan psixodiagnostik metodikalarni yaratish va g'alabani ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadigan ijobiy shaxs sifatlarini rivojlantirish, mag'lubiyatga sabab bo'ladigan salbiy sifatlarini xususan agressivlikni ba'zan me'yordan oshishi va uni sport faoliyati bilan birgalikda sportdan tashqari holatlarda namoyon bo'lishini optimallashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlarda agressiyasini optimallashtirishning psixokorreksiyalash amaliyotini joriy etishga yo'naltirilgan masalalarni ilmiy tadqiq etish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda jismoniy tarbiya va bolalar sportini qo'llab-quvvatlash orqali barcha sport turlari singari yakkakurash sport turlarini rivojlantirishga qaratilgan institutsional hamda huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. Bu borada «...yoshlarning boksga bo'lgan ommaviy qiziqishini inobatga olib, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash tizimini yanada takomillashtirish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularning moddiy rag'batlantirilishini yaxshilash, shuningdek, o'zbek boksining dunyodagi yetakchiligini saqlab qolish va davom ettirish...»² ustuvor vazifa etib belgilanganligi, yosh avlodning sportga bo'lgan qiziqishi va salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'nalishlarida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zarurati talab etiladi.

¹ https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-15-05-13-19_7b97d39fd9f1c6403d3f149e3520c178.pdf

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida 29.04.2021 yildagi PQ-5099-son qarori, <https://lex.uz/docs/5401223>

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O‘RQ-837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida» Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son «O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlar, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son «Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022-yil 20-iyundagi PQ-287-son «Qo‘l jangi sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5280-son «Sport-ta’lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida»gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-martdagi 122-son «Sport turlari bo‘yicha terma jamoalar tarkibiga sportchilarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qarori hamda boshqa me‘yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz psixolog olimlaridan R.A.Abdurasulov, D.N.Arziqulov, K.G.Atabekova, X.Sh.Barotov, A.S.Begmatov, Z.H.Fayziev, Z.E.Gazieva, A.A.Mamadaliyev, A.M.Nazarov, E.N.Nazarov, Dj.Sh.Nasirov, J.A.Pulatov, A.A.Sobirov, E.N.Sirliev, N.Sh.Usmonalieva, N.Sh.Umarova, O.E.Xayitov A.U.Xaitov, Z.Sh.Xaqiqatbekov va boshqalar tomonidan bajarilgan ilmiy izlanishlarda yakka hamda jamoaviy sport turlarida yuqori natijalar qayd etishining pedagogik hamda psixologik uslubiyati ta’siri ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan G.M.Andreyeva, Yu.M.Bludov, L.Berkovis, I.B. Boyko, V.V. Denisov, G.D.Gorbunov, Ye.P.Ilin, A.A.Ipatov, Yu.V.Krayev, A.N.Leontyev, N.D.Levitov, L.V.Marishuk, A.B.Petrovskiy, A.S.Puni, Yu.N. Pavlov, Yu.Yu.Palayma, C.JI.Rubinshteyn, T.G.Rumyanseva, A.V.Rodionov, P.A.Rudik, A.A.Rean, K.V. Selchenok, N.G.Travnikova, V.M.Vizova, L.S.Vigotskiy, I.P. Volkov, N.A.Xudadov, S.O.Zakamorniy va boshqalar tomonidan sport faoliyatida shaxs va agressiv holatlar muammolari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorijlik psixolog olimlardan R.Byeron, K.Lorens, D.Richardson, R.Martens, Schwarzer R., Spilberger H.Die, Severson.R, Voydanoff D.A, B.Kretti, I.I. Sulaymonov, T.V.Xromina, Shantz D.W va boshqalar tomonidan sportchi shaxsi va sport faoliyatida agressivlik muammolari kabi masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 2020-2024 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari strategiyasi va istiqbollari rejasining «Jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishda falsafiy-huquqiy, psixologik-sotsiologik tadqiqotlarni rivojlantirish hamda sport menejmenti, marketingi sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlarda agressiyani optimallashtirishning psixologik imkoniyatlarini tadqiqi etish orqali shaxslararo muloqot va xulq atvorda o'zini-o'zi boshqarish xususiyatlarini shakllantirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlar faoliyatiga xos agressiv xulq-atvor muammosi va unga ta'sir etuvchi psixologik determinantlarini ilmiy-amaliy tadqiq etish;

yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlarda individual va jamoalararo farqiga ko'ra agressiyani optimallashtirishning psixologik mexanizmini ilmiy jihatdan tadqiq etish;

yakkakurash sport turlari faoliyatidagi o'spirin shaxsida «assertiv» xulq-atvorni rivojlantiruvchi hamda ulardagi agressiv holatlarini me'yorlashtirishga qaratilgan psixokorreksion dasturni yaratish;

yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirin shaxsining mashg'ulot hamda musobaqa jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etuvchi «agressiyani optimallashtirishning psixologik imkoniyatlari modeli»ni qo'llash samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlarda agressiyani optimallashtirishning psixologik imkoniyatlarini aniqlash jarayoni tanlangan bo'lib, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti yakkakurash sport turlari fakulteti boks hamda dzyudo yo'nalishida tahsil olayotgan o'spirin yoshidagi 120 nafar talabalar, O'zbekiston Milliy terma jamoasida mashg'ulotlarni olib borayotgan 120 nafar boks hamda dzyudochilar, Chilonzor BO'SMda faoliyat olib borayotgan 40 nafar o'spirin dzyudochilar, jami 280 nafar respondentlar tadqiqotga jalb etildi.

Ilmiy tadqiqotning predmetini yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlarda agressiyani otimallashtirish xamda ularga ta'sir etuvchi psixologik omil va mexanizmlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek, G.Ammoning Men-strukturaviy (ISTA) metodikasi (distruktiv xulqni aniqlash maqsadida), A.Bass va E.Darkilarning agressiya shakllari va uning ko'rsatkichlarini diagnostika qilish metodikasi, V.Boykning "Frustrasiya xolatini aniqlash" metodikasi, sportchining shaxsga xos ustunlik qiluvchi hususiyatlarni aniqlash maqsadida Frayburg shaxs so'rovnomasi (Freiburg Personality Inventory, FPI), Ye.P.Ilin, P.A.Kovalevlarning agressiv xulq-atvorni aniqlash maqsadida metodikasi qo'llanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistik

metodlardan foizli tahlil, faktor tahlili, Mann Uitni U-mezoni, Uilkokson w-mezoni, Spirmaning r_p -korrelyasiya koeffitsiyentini qo'llash orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlarda agressiv xulq-atvor muammosi va unga ta'sir etuvchi psixologik determinantlarini sport faoliyati bilan bog'liq jihatlariga, boks hamda dzyudo sportchilarining agressiyani normadan oshishiga sabab bo'luvchi komponentlariga, sport va shaxslararo munosabatlardagi kognitiv va emotsional ustanovkalariga, muloqotchanlik ko'nikmalariga, sport faoliyatiga nisbatan emotsional barqaror munosabatning paydo bo'lishida ichki va tashqi omillarning ta'siriga bog'liq ekanligi asoslangan;

yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlarda agressiv xulq-atvorni namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik mexanizmlar, xususan «jismoniy agressiya», «verbal agressiya», «bilvosita agressiya», «negativizm», «jizzakilik», «sergumonlik», «ranj», «aybdorlik hissi», frustratsion hamda destruktiv to'siqlarni engib o'tishning darajasi, agressogen holatlarning yuqori va past darajasi orasida o'zaro musbat korrelyasion aloqalar empirik natijalar asosida aniqlangan;

yakkakurash sport turlarida xususan o'spirin sportchi shaxsining hissiy-emotsional sohalariga kompleks ta'sir etish orqali uning agressiyaga barqarorligini oshirish imkoniyatini beruvchi psixokorreksion dasturiy ta'minoti takomillashtirilib, samaradorlik imkoniyatlari dalillangan;

yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi ayniqsa dzyudo hamda boks yo'nalishidagi o'spirinlar sport faoliyati va shaxslararo munosabatlarida mavjud «destruktiv» agressiyani «konstruktiv» agressiyaga o'tkazish maqsadi «agressiyani optimallashtirishning psixologik imkoniyatlari modeli»ni qo'llash orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yakkakurashchilarda destruktiv xulq-atvorni o'rganishda milliy mentalitetga moslashtirilgan psixodiagnostik metodikalar tanlab olinib, ularning agressiya darajasiga ta'sir etadigan sifatlarini aniqlash maqsadidagi mualliflik so'rovnomasi ishlab chiqilgan, amaliyotda aprobatsiya qilingan;;

yakkakurash sport turlari bo'yicha yoshlar milliy terma jamoasi, sportga ixtisoslashtirilgan maktablar hamda sport to'garaklarining sportchilariga mo'ljallangan psixokorreksion dastur ishlab chiqilgan, amaliyotga kiritilgan;

yakkakurashchilarning mashg'ulot hamda musobaqa jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etuvchi "konstruktiv", "destruktiv" agressiya kabi holatlarga murojaat qilinishi o'rganilib, muammoni yechimi tariqasida "Assertiv" xulq atvorning modeli ishlab chiqilib, qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot respondentlarining yetarlicha reprezentativligi; tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan asoslangani, xalqaro miqyosida e'tirof etilgan metodikalar vositasida o'rganilgani, empirik izlanishlar nazariy asoslab berilgani va olingan natijalar aniq matematik-statistik metodlar va ma'lumotlarni qayta ishlash dasturi yordamida korrelyatsion qayta ishlangani va shu asosda psixologik interpretatsiya qilingani, xulosa, taklif, tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani; tadqiqot maydoni sifatida turli hududlardagi muassasalar tanlangani;

olingan natijalar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinib, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sport psixologiyasi, sport psixodiagnostikasi va psixokorreksiya fanlarini nazariy-amaliy materiallar bilan boyitishga xizmat qiladi, olingan empirik ma'lumotlar va izlanishlarda ilgari surilgan g'oyalar, nazariy mushohadalar, ilmiy tahlillar va xulosalar yakkakurash turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlarning ruhiy tayyorgarligini rivojlantirish qonuniyatlari, mexanizmlari, mazkur jarayonda yuzaga keladigan muammolar va ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga, o'z vaqtida ijobiy hal qilishga va g'alabani ta'minlovchi xususiyatlarni belgilashga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosalar hamda tavsiyalardan yakkakurash turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlarda agressiyani optimallashtirishda vujudga keladigan muammolarni yechishning optimal va ahamiyatli usullarini shakllantirishda, bu boradagi ijtimoiy-psixologik treninglar hamda psixokorreksiyaning amalga oshirishda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti yakkakurash fakulteti, boks hamda dzyudo kafedrası, boks hamda dzyudo kurashi bo'yicha yoshlar va kattalar milliy terma jamoasi va boshqa o'quv yurtlari murabbiy va psixologlari uchun «Sport psixologiyasi», «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» bo'yicha ilmiy-uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlarda agressiyani optimallashtirishning psixologik imkoniyatlari (boks va dzyudo yakkakurash turlari misolida) mavzusida olib borgan tadqiqotlar asosida:

yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlarda agressiv xulq-atvor muammosi va unga ta'sir etuvchi psixologik determinantlarini sport faoliyati bilan bog'liq jihatlari, boks hamda dzyudo sportchilarining agressiyani normadan oshishiga sabab bo'luvchi komponentlariga, sport va shaxslararo munosabatlardagi kognitiv va emotsional ustanovkalariga, muloqotchanlik ko'nikmalariga, sport faoliyatiga nisbatan emotsional barqaror munosabatning paydo bo'lishida ichki va tashqi omillarning ta'siriga bog'liq ekanligi asoslangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-sentyabrdagi PM-209 son buyrug'i bilan «Sport psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 30-sentyabrdagi PM-209 a-son ma'lumotnomasi). Natijada yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlar faoliyatiga xos agressiv xulq-atvor muammosi va unga ta'sir etuvchi psixologik determinantlarini ilmiy-amaliy tadqiq etish imkoniyati yaratilgan;

yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlarda agressiv xulq-atvorni namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik mexanizmlar, xususan «jismoniy agressiya», «verbal agressiya», «bilvosita agressiya», «negativizm», «jizakilik», «sergumonlik», «ranj», «aybdorlik hissi», frustratsion hamda destruktiv to'siqlarni engib o'tishning darajasi, agressogen holatlarning yuqori va past darajasi

orasida o'zaro musbat korrelyasion aloqalar empirik natijalar asosida aniqlangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2024-yil 26-sentyabrdagi PM-209 son buyrug'i bilan «Sport psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy Markazining 2024-yil 30-sentyabrdagi PM-209 a-son ma'lumotnomasi). Natijada yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirinlarda individual va jamoalararo farqiga ko'ra agressiyani optimallashtirishning psixologik mexanizmini aniqlashtirilgan;

yakkakurash sport turlarida xususan o'spirin sportchi shaxsining hissiy-emotsional sohalariga kompleks ta'sir etish orqali uning agressiyaga barqarorligini oshirish imkoniyatini beruvchi psixokorreksion dasturiy ta'minoti takomillashtirilib, samaradorlik imkoniyatlari dalillangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2024-yil 26-sentyabrdagi PM-209 son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy Markazining 2024-yil 30-sentyabrdagi PM-209 a-son ma'lumotnomasi). Natijada yakkakurash sport turlari faoliyatidagi o'spirin shaxsida «assertiv» xulq-atvorni rivojlantiruvchi hamda ulardagi agressiv holatlarini me'yorlashtirishga qaratilgan psixokorreksion dasturiy taminotni yaratilgan;

yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi ayniqsa dzyudo hamda boks yo'nalishidagi o'spirinlar sport faoliyati va shaxslararo munosabatlarida mavjud «destruktiv» agressiyani «konstruktiv» agressiyaga o'tkazish maqsadi «agressiyani optimallashtirishning psixologik imkoniyatlari modeli»ni qo'llash orqali takomillashtirilgan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2024-yil 26-sentyabrdagi PM-209 son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy Markazining 2024-yil 30-sentyabrdagi PM-209 a-son ma'lumotnomasi). Natijada yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi o'spirin shaxsining mashg'ulot hamda musobaqa jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etuvchi «agressiyani optimallashtirishning psixologik imkoniyatlari modeli» ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Ilmiy tadqiqot yuzasidan jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (shu jumladan, 7 ta ilmiy maqola respublika jurnallarida, 1 ta ilmiy maqola xorijiy jurnallarda), 12 ta ma'ruza tezis (shu jumladan, 7 ta ma'ruza tezisi respublika, 5 ta ma'ruza tezisi xorijiy ilmiy anjuman materiallari to'plamida)da nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, shuningdek tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi va e‘lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma‘lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Psixologiyada agressiya muammosi: ilmiy yordoshuvlardagi ananalar”** deb nomlanib, uzoq va yaqin xorijlik hamda mamlakatimiz olimlarining mavzuga oid nazariy qarashlari umumlashtirilgan.


Mazkur bobda zamonaviy psixologiyada agressiya hodisasini o‘rganish muammosi, agressiya holatini optimallashtirish muammosini nazariy manbalarda talqin etilishi hamda yakkakurash sport turlari bilan shug‘ullanuvchi o‘spirinlar faoliyatiga xos agressiv vaziyatlar psixologik tadqiqot predmeti sifatida ekanligi keng ilmiy nazariy, tarixiy jihatdan sharhlab o‘tilingan. Ilmiy manbalarda respublikamiz psixolog olimlaridan R.A.Abdurasulov, D.N.Arziqulov, K.G.Atbekova, X.Sh.Barotov, A.S.Begmatov, Z.H.Fayziev mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan - G.M.Andreyeva, Yu.M.Bludov, L.Berkovis, I.B.Boyko, V.V. Denisov, G.D.Gorbunov, Ye.P.Ilin, A.A.Ipatov, Yu.V.Krayev, A.N.Leontyev, N.D.Levitov, L.V.Marishuk, A.B.Petrovskiy, A.S.Puni xorijlik psixolog olimlardan Bandura A, R.Byeron, K.Lorens, D.Richardson tomonidan sportchi shaxsi va sport faoliyatida agressivlik muammolari kabi masalalari ilmiy tadqiq etilganligi ushbu bobda keng ochib berilgan, muayyan xulosalar chiqarilgan.

O‘rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, yakkakurash sport turlari bilan shug‘ullanuvchi o‘spirinlarda agressiyani optimallashtirishning psixologik imkoniyatlarini empirik jihatdan o‘rganish va shu o‘rganish natijalari asosida ilmiy xulosalarni shakllantirish va kelajakda psixologiya fani uchun muhim bo‘lgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish muhimligi asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning **“Yakkakurash sport turlari bilan shug‘ullanuvchi o‘spirinlarda agressiv xulq-atvorni tadqiq etishning ilmiy-amaliy jihatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi o‘rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu bobda tadqiqotning empirik asoslari, tadqiqotda qo‘llanilgan metodikalarning umumiy tavsifi, o‘tkazish tartibi, nazorat guruhi, tajriba guruhi hamda etalon guruhlarining dastlabki natijalar tahlili, yakkakurash sport turlari bilan shug‘ullanuvchi o‘spirinlarda agressiyani optimallashtirishni aniqlash orqali mashg‘ulot yoki musobaqa jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan agressiv holatlarda psixik barqarorligini ta‘minlovchi, shaxslararo va ichki ziddiyatlar tuzilmasini me‘yorlashtirishga qaratilgan psixokorreksion trening dasturi mashqlarini qo‘llash, psixologik profilaktika o‘tkazish orqaligina sportchi natijalarini nazorat qilish, barqarorlashtirish va sportchi shaxsiga ta‘sir etuvchi psixologik xususiyatlar

orasidagi korrelyatsion bog‘lanish natijalari, tizimlashtirilgan psixokorreksion trening dasturlari o‘z aksini topgan.

Tadqiqotning metodik tavsifi diagnostik usullari (anketa so‘rovnomasi, psixodiagnostik usullar, matematik statistik tahlil usullar), tadqiqotning korreksion usullari (psixoterapevtik usullar, harakatli o‘yinlar) tadqiqotning tashkil etilishi keltirilgan. Tadqiqotimizning diagnostik qismida dastlab anketa so‘rovnomasi o‘tkazildi. Anketa so‘rovnomasini o‘tkazishdan maqsad, yakkakurashchilarda mag‘lubiyatga sabab bo‘layotgan agressiv holatlar darajasini aniqlab olish maqsadida Respublikamizda o‘z faoliyatini olib borayotgan Chilonzor BO‘SM dzyudo yo‘nalishidagi o‘spirinlar sportchilarda dastlabki diagnostik tahlil olib borildi. Muallifligimizda tuzilgan anketa so‘rovnomasini 19 ta savoldan iborat bo‘lib, agressivlikni yuqori, past, o‘rta darajasini aniqlab olishga yordam berdi. 4-rasmga qarang.



1-Rasm. Yakkakurash sport turlari bilan shug‘ullanuvchi dzyudochi o‘spirinlarda agressiya darajasi %

Rasmda ko‘rinib turganidek agressiya darajasi o‘spirin dzyudochilarda 17,5% past darajani, 57,7% o‘rta darajani hamda 25% yuqori darajani ko‘rsatmoqda. Ushbu rasmdan hulosa qiladigan bo‘lsak bu yerda yuqori ko‘rsatilgan agressiya darajasi destruktiv tabiatga ega bo‘lganligi boisidan uni me‘yor darajasi ustida korreksion ishlarni amalga oshirish zaruratini beradi.

A.Bass va E.Darkning agressiya shakllari metodikasi bo‘yicha O‘zDJTSU hamda terma jamoa o‘rtasida tafovutlarni tahlil etadigan bo‘lsak sergumonlik bo‘yicha ishonchli tafovutlarni ko‘rishimiz mumkin ($U=4165,000$; $p<0,001$). Ushbu holatni tahlil qiladigan bo‘lsak sergumonlik holati ya‘ni hamma narsaga shubha bilan qarash, ikkilanishlar, autoagressiyaga moyillik O‘zDJTSU yakkakurashchilariga nisbatan terma jamoa a‘zolarida yuqori bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zDJTSU sportchilari sport faoliyati bilan shug‘ullanish bilan birga oliy ta‘lim muassasasida doimiy ta‘limiy va tarbiyaviy maqsadlarga ega faoliyat bilan shug‘ullanishadi. Terma jamoa a‘zolarida esa sport ustasi bo‘lish, g‘alaba qozonish istagi, biroz egoistik ruh hamda mashg‘ulot va musobaqada raqiblariga nisbatan turli gumonda bo‘lish holatlari uchrashi mumkin.

Aybdorlik hissi bo‘yicha ham ishonchli tafovutlarni ko‘rishimiz mumkin ($U=6030,000$; $p<0,05$). aybdorlik (bizning xatti-harakatlarimiz va ba‘zi hollarda o‘zimiz - boshqa odamlarning muammolariga sabab bo‘ladi deb o‘ylaydigan salbiy munosabat) turli xil ko‘rinishlarga ega va har doim ham “aybdorlik” yoki “aybdor”

bilan bevosita bog‘liq emas. Bu tuyg‘u nafaqat odam aybdor bo‘lishi mumkin bo‘lgan joyda paydo bo‘lishi mumkin. Bu kuchli stress bo‘lgan har qanday vaziyatda paydo bo‘lishi mumkin. 1-jadvalga qarang.

1.-Jadval.

A.Bass va E.Darkning agressiya shakllari metodikasi bo‘yicha O‘zDJTSU hamda Terma jamoa o‘rtasidagi tafovutlar (Mann-Uitni U-mezoni asosida n=240)

	Guruh	№	O‘rtacha rang	Ranglar summasi	U (Mann-Uitni qiymati)	P (ishonch darajasi)
Jismoniy agressiya	O‘zDJTSU	120	127,46	15295,00	6365,000	,112
	Terma jamoa	120	113,54	13625,00		
	Jami	240				
Verbal agressiya	O‘zDJTSU	120	126,07	15128,00	6532,000	,207
	Terma jamoa	120	114,93	13792,00		
	Jami	240				
Bilvosita agressiya	O‘zDJTSU	120	120,52	14462,50	7197,500	,996
	Terma jamoa	120	120,48	14457,50		
	Jami	240				
Negativizm	O‘zDJTSU	120	126,70	15203,50	6456,500	,157
	Terma jamoa	120	114,30	13716,50		
	Jami	240				
Jizzakilik	O‘zDJTSU	120	127,48	15297,50	6362,500	,114
	Terma jamoa	120	113,52	13622,50		
	Jami	240				
Sergumonlik	O‘zDJTSU	120	95,21	11425,00	4165,000	,000***
	Terma jamoa	120	145,79	17495,00		
	Jami	240				
Ranj	O‘zDJTSU	120	127,57	15308,00	6352,000	,104
	Terma jamoa	120	113,43	13612,00		
	Jami	240				
Aybdorlik xissi	O‘zDJTSU	120	110,75	13290,00	6030,000	,024*
	Terma jamoa	120	130,25	15630,00		
	Jami	240				

Izoh: *-p<0,05; **-p<0,01; *** -p<0,001

Frayburg shaxs so‘rovnomasi bo‘yicha olingan natijalarni tahlil etadigan bo‘lsak, spontan agressivlik shkalasi bo‘yicha ishonchli tafovutlar aniqlandi (U=6150,500; p<0,05). Spontan agressivlik bu beixtiyor, chiqisha olmaydigan, murosasiz deganidir. Ushbu holatda terma jamoa yakkakurashchilariga nisbatan O‘zDJTSU a‘zolarida spontanlik holati yuqori bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Spontan tajovuz hech qanday sababsiz paydo bo‘ladi, odatda ba’zi ichki impulslarning ta’siri bevosita va bilvosita namoyon bo‘lishi mumkin.

Ekstraversiya-introversiya ko‘rsatkichlarida ham O‘zDJTSU hamda terma jamoa o‘rtasidagi ishonchli tafovutlar aniqlandi (U=6030,500; p<0,05). O‘z o‘zidan ma’lum bo‘ladiki O‘zDJTSU a‘zolaridagi sinaluvchilarimiz terma jamoa sportchilariga nisbatan ekstravert sanalar ekan, 2-jadvalga qarang.

Frayburg shaxs so'rovnomasi bo'yicha olingan natijalarni tahlil etadigan bo'lsak spontan agressivlik shkalasi bo'yicha ishonchli tafovutlar aniqlandi ($U=6150,500$; $p<0,05$). Spontan agressivlik bu beixtiyor, chiqisha olmaydigan, murosasiz deganidir. Ushbu holatda terma jamoa yakkakurashchilariga nisbatan O'zDJTSU a'zolarida spontanlik holati yuqori bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Spontan tajovuz hech qanday sababsiz paydo bo'ladi, odatda ba'zi ichki impulslarning ta'siri bevosita va bilvosita namoyon bo'lishi mumkin.

2-Jadval.

Frayburg shaxs so'rovnomasi (Freiburg Personality Inventory, FPI) bo'yicha O'zDJTSU hamda terma jamoa o'rtasidagi tafovutlar (Mann-Uitni U-mezoni asosida $n=240$)

	Guruh	№	O'rtacha rang	Ranglar summasi	U (Mann-Uitni qiymati)	P (ishonch darajasi)
Nevrotiklik	O'zDJTSU	120	126,08	15129,00	6531,000	,193
	Terma jamoa	120	114,93	13791,00		
	Jami	240				
Spontan agressivlik	O'zDJTSU	120	129,25	15509,50	6150,500	,044*
	Terma jamoa	120	111,75	13410,50		
	Jami	240				
Muvozanatlashganlik	O'zDJTSU	120	123,73	14848,00	6812,000	,465
	Terma jamoa	120	117,27	14072,00		
	Jami	240				
Reaktiv agressivlik	O'zDJTSU	120	128,53	15423,50	6236,500	,055
	Terma jamoa	120	112,47	13496,50		
	Jami	240				
Ekstraversiya-introversiya	O'zDJTSU	120	130,25	15629,50	6030,500	,022*
	Terma jamoa	120	110,75	13290,50		
	Jami	240				
Emotsional labillik	O'zDJTSU	120	128,53	15424,00	6236,000	,060
	Terma jamoa	120	112,47	13496,00		
	Jami	240				
Maskulizm-feminizm	O'zDJTSU	120	128,80	15455,50	6204,500	,053
	Terma jamoa	120	112,20	13464,50		
	Jami	240				

Izoh: *- $p<0,05$; **- $p<0,01$; *** - $p<0,001$

Ekstraversiya-introversiya ko'rsatkichlarida ham O'zDJTSU hamda terma jamoa o'rtasidagi ishonchli tafovutlar aniqlandi ($U=6030,500$; $p<0,05$). O'z o'zidan ma'lum bo'ladiki O'zDJTSU a'zolaridagi sinaluvchilarimiz terma jamoa sportchilariga nisbatan ekstravert sanalar ekan.

Frustratsiya (lot. frustratio — aldanish, rejalarning barbod bo'lishi) muammoni qilish yoki maqsadga erishish yo'lidagi faoliyatni izdan chiqaruvchi ruhiy holat. U kishining maqsadga erishishi yo'lida uchraydigan, obyektiv ravishda yengib bo'lmaydigan yoki sub'ektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo'ladi. Frustratsiyani keltirib chiqaruvchi sabablar frustrator deyiladi. Frustratsiya holati frustratorning kuchiga, jadalligiga bog'liq. Frustratsiya holatida

shaxsning vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyati muhimdir. Shu bois turmushning noqulay ta'sirlariga qarshi kurashish uchun odam fe'l-atvoridagi barqarorlikni shakllantirish lozim.


3-Jadval.

V.Boykoning "Frustratsiya xolatini aniqlash" metodikasi bo'yicha O'zDJTSU hamda terma jamoa o'rtasidagi tafovutlar (Mann-Uitni U-mezoni asosida n=240)

	Guruh	№	O'rtacha rang	Ranglar summasi	U (Mann-Uitni qiymati)	P (ishonch darajasi)
Frustratsiya darajasi	O'zDJTSU	120	129,50	15540,00	6000,000	,026*
	Terma jamoa	120	110,42	13140,00		
	Jami	240				

Izoh: *-p<0,05; **-p<0,01; *** -p<0,001


3-jadavlda frustratsiya ham boshqa ruhiy holatlar singari kishi fe'l-atvoriga xos yoki yangi xislatlarning boshlanishini ko'rsatuvchi, shuningdek, o'tkinchi holat bo'lishi mumkin. Frustratsiya asosan, salbiy hissiyotlar uyg'otadi. Frustratsiyaning turlari: tajovuzkor holat, apatiya, depressiv holat, g'amginlik tuyg'usi, o'ziga ishonmaslik, kuchsizlik, ma'yuslik va boshqalar. Frustratsiyada agressivlik holati ko'pincha o'zini tuta olmaydigan, qo'pol odamga xos bo'lsa, depressiya holati o'ziga ishonmaydigan shaxsga taalluqlidir. Ba'zan og'ir tabiatli kishilarda ham shu xildagi holatni vujudga keltirish mumkin, lekin bu vaziyat uzoqqa cho'zilmaydi. Natijalarda ishonchli tafovutlar chiqqanini ko'rishimiz mumkin (U=6000,000; p<0,05). O'zDJTSU azolarida terma jamoa yakkakurashchilariga nisbatan frustratsiya darajasi biroz yuqoriroq hisoblanar ekan.



2-Rasm. O'zDJTSU hamda terma jamoa respandentlarining agressiya shakllarining namoyon bo'lishi %

2-Rasmda jismoniy agressiya, verbal agressiya, bilvosita agressiya, negativizm, jizzakilik hamda ranj kabi holatlar % hisobida O'zDJTSU sinaluvchilarida terma jamoa a'zolariga nisbatan baland ekanligini ko'rinadi. Terma jamoa respandentlaridagi dastlabki tashxislash jarayonida sergumonlik hamda aybdorlik hissi ustun ekanini ko'rishimiz mumkin.

Og‘ishgan xulqning alohida turlarini ajratish va ularning o‘xshash belgilar bo‘yicha tizimlashtirish garchi ilmiy tahlil maqsadida oqlangan bo‘lsa-da, shartli hisoblanadi. Real hayotda alohida shakllar ko‘pincha uyg‘unlashadi yoki kesishadi, og‘ishgan xulqning alohida aniq holatlari individual bo‘yalgan va takrorlanmas bo‘ladi.



3-Rasm. Konstruktiv hamda destruktiv agressiyani O‘zDJTSU hamda terma jamoa respandentlarida namoyon bo‘lishi %

Destruktiv ifodalanganlikning yo‘nalishi va darajasi bo‘yicha og‘ishgan xulqni quyidagi shkala bo‘yicha taqdim etish mumkin:

- antiijtimoiy (faol-destruktiv) – antiijtimoiy guruhlar me‘yoriga moslashgan,
- nisbatan destruktiv – asotsial (passiv-destruktiv)
- o‘z-o‘zini parchalovchi (passiv-autodestruktiv)
- o‘z-o‘zini o‘ldiruvchi (faol-autodestruktiv).

Real hayotda alohida shakllar ko‘pincha uyg‘unlashadi yoki kesishadi, og‘ishgan xulqning alohida aniq holatlari individual bo‘yalgan va takrorlanmas bo‘ladi. Destruktiv xulqni psixologik tasniflash. Psixologik realikni ilmiy tahlil qilish shakllaridan biri uning ko‘rinishlarining tasnifi hisoblanadi. Tadqiqotchilarning axloqiy og‘ishlarni tizimlashtirishdagi ko‘p sonli urinishlari hali yagona tasnif yaratishga olib kelmadi.

“Yakkakurash sport turlari bilan shug‘ullanuvchi o‘spirinlarda agressiyani optimallashtirishning empirik tahlili” deb nomlangan uchinchi bobida agressiv xulq-atvorga ta‘sir ko‘rsatuvchi psixologik omillaning interkorrelatsion tahlili, agressiv holatlarni optimallashtirishning ilmiy-uslubiy komponentlari hamda yakkakurash sport turlari bilan shug‘ullanuvchi o‘spirinlarda agressiyani optimallashtirishning psixologik imkoniyatlari ochib berish kabi empiric tahlillar keng o‘rin egallagan.

Uchinchi bobimizning dastlabki bosqichida biz agressiya darajasini aniqlash uchun ishlatilgan metodikalarimizning shkalalar o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsion bog‘liqliq haqida tushuntirib o‘tdik.

Korrelyatsiya tadqiqotini o‘tkazish strategiyasi kvazi-eksperimentga o‘xshaydi. Kvazi-eksperimentdan yagona farq shundaki, ob‘ektga boshqariladigan ta‘sir yo‘q.

Korrelyatsiyani o'rganish rejasi juda oddiy bo'lishi mumkin. Tadqiqotchi shaxsning bir nechta psixik xususiyatlari o'rtasida yoki ma'lum tashqi darajalar va ruhiy holatlar o'rtasida statistik bog'liqlik mavjudligi haqidagi farazni ilgari suradi. Shu bilan birga, sababiy bog'liqlik haqidagi taxminlar muhokama qilinmaydi.

Korrelyatsiya tadqiqoti - bu bir nechta (ikki yoki undan ortiq) o'zgaruvchilar o'rtasidagi statistik bog'liqlik haqidagi gipotezani tasdiqlash yoki rad etish uchun olib boriladigan tadqiqot. Psixologiyada aqliy xususiyatlar, jarayonlar, holatlar va boshqalar o'zgaruvchan rolni bajarishi mumkin. Quyida biz A.Bass va E.Darkning agressiya shkalalari hamda G.Ammoning Men-strukturaviy (ISTA) metodikasi shkalalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni batafsil ko'rib chiqamiz.

4-Jadval

A.Bass va E.Darkning agressiya shkalalari hamda Frayburg shaxs so'rovnomasi (Freiburg Personality Inventory, FPI) shkalalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik (Spirman korrelyatsiyasi, n=240)

Ko'rsatkichlar	Jismoniy agressiya	Verbal agressiya	Bilvosita agressiya	Negativizm	Jizzakilik	Sergumonlik	Ranj	Aybdorlik xissi
Nevrotiklik	0,765(**)	0,428(**)	-0.012	0,474(**)	0,169(**)	-0.057	-0.005	-0,158(*)
Spontan agressivlik	0,401(**)	0,722(**)	0.014	0,302(**)	0.051	-0.106	0.004	-0.088
Muvozanatlashganlik	-0,467(**)	-0,183(**)	-0.074	-0,277(**)	-0.03	-0.063	0,144(*)	0.05
Reaktiv agressivlik	0,808(**)	0,338(**)	0.097	0,373(**)	0.005	-0,147(*)	-0.117	-0.046
Ekstraversiya-introversiya	0,416(**)	0,323(**)	0.069	0,299(**)	0.042	-0.112	0.078	-0.116
Emotsional labillik	0,427(**)	0,289(**)	-0.015	0,279(**)	0.045	-0.063	0.042	-0,138(*)
Maskulinizm-feminizm	0,338(**)	0,288(**)	0.021	0,206(**)	-0.007	-0.063	0.099	-0.099

Izoh: *-p<0,05; **-p<0,01.

Nevrotiklik hamda jismoniy agressiya shkalalari o'rtasida musbat korrelyatsiya aniqlani ($r=0,765$; $p<0,01$). Emotsional holatni noturg'unligidan dalolat beruvchi nevtotiklik (jizzakilik)ligi bor sportchilarni jismoniy agressiyaga moyil deyishimiz mumkin. Shu bilan birga nevtotiklik hamda verbal agressiya, negativizm, jizzakilik shkalalari o'rtasida ham musbat korrelyatsiya aniqlandi ($r=0,428$, $p<0,01$. $r=0,474$, $p<0,01$. $r=0,169$; $p<0,01$). O'z o'zidan ma'lum bo'ladiki nevtotik insonlarimiz og'zaki tajovvuzkorlikni namoyon qilishlari bilan birga, negativizm holatida hamma narsani inkor etishlari o'zlarini aytganini qilishlari, jizzakilikni barcha ko'rinishlarini namoyon qilishlari mumkin. Nevtotiklik shkalasi hamda aybdorlik hissi o'rtasida manfiy korrelyatsiya aniqlandi ($r=0,158$; $p<0,05$). Bundan ko'rishimiz mumkinki nevtotik shaxslarda o'zini ayblash kabi aybdorlik hissi kuzatilmaydi.

Spontan agressivlik hamda jismoniy agressiya, verbal agressiya, negativizm shkalalari o'rtasida musbat korrelyatsion aloqadorlik aniqlandi $r=0,401$; $p<0,01$. ($r=0,722$; $p<0,01$. $r=0,302$; $p<0,01$). (spontan agressivlik) introtensiv turdagi psixopatik holatni aniqlash va baholashga imkon beradi. Yuqori baholar

g'ayriixtiyoriy xulqqa ega bo'lgan kishilarga xos xususiyatlarni bildiradi. O'z-o'zidan paydo bo'ladigan (spontan) agressivlik — bu tajovuzkor, beixtiyor, chiqisha olmaydigan, murosasiz deganidir. Biza korishimiz mumkin bo'ladiki spontan tajavvuzkor insonlarda jismoniy agressiyani ham, verbal agressiyani ham, negativizmni ham dominatlik qiladi.

